

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

***60730800 - Arxitektura yodgorliklari rekonstruksiyasi va
restavratsiyasi bakalavriat ta'lim yo'nalishining***

MALAKA TALABI



Toshkent-2024

ISHLAB CHIQLILGAN VA KIRITILGAN:

- Toshkent arxitektura-qurilish universiteti.
- O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil “25” 06 dagi 218 – sonli buyrug‘i bilan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo’nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	Umumiy tasnifi	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi.....	4
1.1.1.	Malaka talabining qo‘llanilishi	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining ob’ektlari	5
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari	5
2.	Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.....	7
3.	Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	8
4.	Fanlar katalogining tuzilishi.....	8
	Bibliografik ma’lumotlar	10
	Kelishuv varag‘i.....	11

1. Umumiy tavsif

60730800 - Arxitektura yodgorliklari rekonstruksiyasi va restavratsiyasi ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi ta’lim shaklida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta’lim shakli bo’yicha o’qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo’llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo’llanilishi.

Malaka talabi 60731100 - Arxitektura yodgorliklari rekonstruksiyasi va restavratsiyasi ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur ta’lim yo’nalishi bo’yicha malaka talablari, o’quv reja va o’quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o’quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o’z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o’quv bo’limi boshlig’i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o’qituvchilari;

ta’lim yo’nalishining o’quv rejasi va fan dasturlarini o’zlashtiruvchi oliy ta’lim muassasasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta’limni boshqarish bo’yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta’lim tashkilotlariga o’qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlari tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.

60730800 - Arxitektura yodgorliklari rekonstruksiyasi va restavratsiyasi bakalavriat ta’lim yo’nalishi – fan, ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatish sohasidagi yo’nalish bo’lib, me’moriy yodgorliklarni ta’mirlash va modernizatsiyalash loyihalarini yaratish, tarixiy shaharlarda transport tizimlarini takomillashtirish, shaharlarni qayta qurish, binolarni ta’mirlash va ekspluatatsiya qilish bilan bog’liq majmuiy masalalarni yechish, restavratsiya sohasidagi me’yoriy hujjatlar bilan ishlash va ushbu yo’nalishdagi mutaxassislarni tayyorlashdagi inson faoliyati, usullari, metodlari va uslublarining majmuasini o’z ichiga oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining ob’ektlari.

davlat va nodavlat tashkilot, korxonalar va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va boshqalar;

arxitektura-qurilish sohasi va tarmoqlarida tashkilot, korxonalar va muassasalar samaradorligi va natijadorligini oshirish jarayonlari;

madaniy meros ob’ektlarini ta’mirlashda tizimli yondoshuv tamoyillarini tatbiq etish, davlat va mahalliy boshqaruv qarorlarini amalga oshirish jarayonlari;

me’moriy obidalar, tarixiy shaharlar, arxeologiya va arxitektura yodgorliklari, me’moriy bezaklar, tarixiy qadamjolar va bog’lar, muhandislik inshootlari, tushuntirish xatlari, ularning grafik va hajmiy tasvirlari.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

- *ilmiy-tadqiqot;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *loyiha-konstruktorlik;*
- *axborot-tahliliy;*
- *ishlab chiqarish-texnologik.*

1.2.4. Kasbiy vazifalari:

60730800 - Arxitektura yodgorliklari rekonstruksiyasi va restavratsiyasi ta’lim yo’nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob’ektlari va turlariga muvofiq balavriyat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

arxitektura sohasida tarixiy shaharlar hududini tahlil qilish, qayta qurish va modernizatsiyalash loyihalarini yaratish, transport tizimlarini takomillashtirish, binolarni qayta ta’mirlash bilan bog‘liq majmuaviy masalalarni yechish, ushbu yo‘nalishdagi mutaxassislarini tayyorlashdagi inson faoliyati, usullari va uslublarining majmuasini yaratish;

respublika va xorijda chop etilgan arxitektura va ta’mirlash sohasiga oid ilmiy-texnik axborotlarni va ilmiy manbalarini o‘rganish, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda bevosita ishtirok etish;

internet tarmog‘ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik va texnologik yutuqlar haqida ma’lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda qidirish, topish va foydalanish;

ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish jamoasi tarkibida (tayyorlanganlik profiliga mos ravishda) kasbiy faoliyat masalalarini yechish;

tadqiqot natijalari va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tadbiq qilish;

ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

informatsion texnologiyalar tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

me’moriy va muhandislik yechimlarini amaliyotga tadbiq qilish;

ishlab chiqarish jarayonida sifatni boshqarish;

ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;

fikrlar har-xil bo‘lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;

me’moriy, muhandislik yoki ishlab chiqarish jamoasi ishini tashkil qilish va uni boshqarish;

bajarilayotgan ish rejasini tuzish va bu ishni nazorat qilish, ishni bajarish uchun zarur bo‘lgan resurslarni rejalashtirish, o‘z ishining natijalarini baholash;

ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhitni va mehnat xavfsizligini nazorat qilish tizimi talablariga mosligini monitoring qilish.

Axborot-tahliliy faoliyatida:

arxitektura yodgorliklarini saqlash va ulardan foydalanish bo‘yicha ma’lumotlarni to‘plash, qayta ishlash va tahlil qilish;

ta’mir ishlari faoliyatini to‘g‘ri rejalashtirish va uning samarali ishlashini ta’minlash;

tarixiy shaharlar va yodgorliklarning turli ko‘rsatkichlari bo‘yicha ma’lumotlar bazasini yuritish;

loyihalar samaradorligini baholash;

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo‘yicha hisobot tayyorlash.

Ishlab chiqarish-texnologik faoliyatda:

kompyuter grafik dasturlardan foydalanish;

dastlabki va ishchi loyihalarni tayyorlash;

me’moriy yodgorliklar konstruksiyasini tahlil etishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish;

qurilish materiallari va konstruksiyalari sifatini aniqlash;

ta’minlash loyihasini bajarishda ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish;

yodgorliklarning muhandislik tizimlarini tadqiq etish;

texnologik jarayonlarda ilmiy ishlanmalardan foydalanish;

loyihalashda talab va takliflar nazariyasidan foydalanish;

texnologik xarita tizimida loyiha hujjatlaridan foydalanish;

ayrim konstruksiyalarni mustahkamlikka va chidamlilikka hisoblash;

texnik sxemalarni, chizmalarni, eskizlarni bajarish va o‘qish;

konstruksiya materialining umrboqiyligi va ishonchliligini oshirish;
me’moriy yodgorliklarni va inshootlarni loyihalash, ta’mirlash, qayta qurish va ekspluatatsiya qilish borasida me’yoriy-ma’muriy hujjatlarni tuzish;
ishlab chiqarishda mehnat xavfsizligi bo’yicha mutaxassislariga qo’yiladigan talablarni ishlab chiqish.

Loyiha-konstruktorlik faoliyatida:

tarixiy-shaharsozlik va me’moriy yodgorliklarni qayta qurish va ta’mirlash loyihalarini tuzish, modernizatsiya, tarixiy shaharlar xududini takomillashtirish, ta’mirlash yo’nalishlari va boshqalarni tahlil etish va tanlash;

bajarilayotgan loyiha-konstruktorlik va amaliy ishlar mavzusi bo’yicha informatsion texnologiyalardan foydalanish, ishlab chiqish va tadqiq qilish;

loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;

amaliyotda axborot texnologiyalarning xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy paradigma va metodologiyalarni, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo’llash.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo’yiladigan talablar

davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy-ilmiy fanlar bo’yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo’lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

axborot texnologiyalarni kasbiy faoliyatda qo’llay bilishi, axborotlarni yig’ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo’lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o’z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

sog’lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to’g’risida tasavvurga ega bo’lish.

me’yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko’nikmalariga ega bo’lish;

arxitektura tarixi va nazariyasi yutuqlarini bilish;

restavratsiya nazariyasi va metodologiyasini bilish;

loyiha yechimlarini optimallashtirish, ta’mirlash ishlarini rejalashtirish va amalga oshirish ko’nikmalariga ega bo’lish;

tarixiy ob’ektlarning qurilish materiallari va ularning tarkibiy tuzilishini bilish;

yodgorliklarning konstruktiv yechimlari bo’yicha tasavvurga ega bo’lish;

restavratsiya va rekonstruksiya ishlarida smeta ishi va me’yoriy xujjatlarni bajarish ko’nikmalariga ega bo’lish;

madaniy meros ob’ektlarini ta’mirlashda jahon tajribalaridan foydalana olish;

ta’mirlash va qayta qurish jarayonlari texnologiyasini tashkil eta olish ko’nikmalariga ega bo’lish;

arxitektura yodgorliklari bezaklarini ta’mirlash va qayta tiklash ishlarini bajara olish;

arxitekturaviy loyihalar, biznes-rejalar va shartnomalarni shakllantirish, ijrochilar faoliyatini muvofiqlashtirish ko’nikmalariga ega bo’lish;

ta’mirlash loyihalari jarayonlarini takomillashtirish, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarini baholash;

yangi arxitektura va ta’mirlash tashkilotlarini (faoliyat yo’nalishlari, mahsulotlari) yaratish va rivojlantirish uchun biznes rejalashtirish ko’nikmalariga ega bo’lish.

3. Amaliyotlarga qo’yiladigan talablar.

Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg’unlashtirish, tegishli amaliy ko’nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta’lim yo’nalishi bo’yicha quyidagi amaliyotlar o’tkaziladi:

1. Malakaviy o’lchov amaliyoti
2. Ishlab chiqarish amaliyoti;
3. Bitiruv oldi amaliyoti.

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O’quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Umumiy Majburiy fanlar	4800	160	1,2,3,4,5,6,7,8
1.01	O’RT1104	O’zbek (rus) tili	120	4	1
1.02	XT1104	Xorijiy til	120	4	1
1.03	JTS1104	Jismoniy tarbiya va sport	120	4	1
1.04	O’EYaT1104	O’zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.05	AQTE1104	An’anaviy qurilish tizimlari va elementlari	120	4	1
1.06	AQR1108	Arxitekturaviy qalamtasvir va rangtasvir	240	8	1,2
1.07	ALA1114	Arxitekturaviy loyihalash asoslari	420	14	1,2,3
1.08	ATN1116	Arxitektura tarixi va nazariyasi	480	16	2,3,4,5
1.09	AK1304	Arxitekturaviy konstruksiya	120	4	3
1.10	AKA1210	Arxitekturaviy kompozitsiya asoslari	300	10	2,3
1.11	AP1204	Arxitekturaviy perspektiva	120	4	2
1.12	FAL1204	Falsafa	120	4	2
1.13	DIN1204	Dinshunoslik	120	4	2
1.14	KL(BIM)1308	Kompyuterda loyihalash (BIM)	240	8	3,4
1.15	RKT1308	Restavratsiyada kimyoviy tadqiqotlar	240	8	3,4
1.16	AL1412	Arxitekturaviy loyihalash	360	12	4,5,7
1.17	AT1408	Arxitekturaviy tipologiya	240	8	4,5
1.18	AYoRR1416	Arxitektura yodgorliklari restav-	480	16	4,5,7,8

		ratsiyasi va rekonstruksiyasi			
1.19	YoBR1508	Yodgorliklar bezaklari restavratsiyasi	240	8	5,7
1.20	GMZP1504	Guruntlar mexanikasi, zamin va poydevorlar	120	4	5
1.21	BIK1704	Bino va inshootlar konstruksiyasi	120	4	7
1.22	IMJ1704	Injinerlik muhandislik jihozlash	120	4	7
1.23	RMH1804	Restavratsiyada me’yoriy hujjatlar	120	4	8
2.00		Tanlov fanlari	1350	45	3-8
		<i>Tanlov fanlari</i>	<i>1350</i>	<i>45</i>	<i>3-8</i>
Kvalifikatsiya		Arxitektor-restavrator			
		Jami:	6150	205	
		Malakaviy amaliyot*	900	30	6
		Bitiruv malakaviy ishini tayyorlash va himoya qilish	150	5	8
		Jami:	1050	35	
		HAMMASI	7200	240	

*) Toshkent arxitektura-qurilish universiteti uchun amal qiladi.

Bibliografik ma’lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so’zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta’lim yo’nalishi, kasbiy faoliyat ob’ekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o’quv reja va fan dasturlari, profil, o’qib-o’rganish natijalari, o’quv davri, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalavriatning o’quv jarayoni, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta’lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o’quv fanlari bloki, oliy ta’lim muassasasi, oliy ta’lim tashkiloti, ta’lim jarayoni, o’quv davri, chizma geometriya, an’anaviy shakllar va bezaklar, ashyoshunoslik, muhandislik tarmoqlari va jihozlari, me’moriy loyihalash, arxitekturaviy kompozitsiya, arxitekturaviy grafika, san’at, arxitektura va shaharsozlik tarixi, me’moriy yodgorliklar tipologiyasi, obidalar konstruksiyasi, restavratsiya, rekonstruksiya, tarixiy shaharlarni qayta qurish, tarixiy markazlar, me’yoriy hujjatlar.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQLILGAN:



Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

Rektor  B.A. Tulaganov

2024 yil « _____ » _____

O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi


Direktor  B.G. Abdikarimov

2024 yil « _____ » _____



M.O'.

KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi
Direktor  M. Boltabayev

2024 yil « _____ » _____



O'zbekiston Respublikasi FA
San'atshunoslik instituti

Direktori  Sh.R. Pidaev

2024 yil « _____ » _____

M.O'.

M.O'.

Kasbiy faoliyatni rivojlantirish markazi

Direktor  I.K. Giyasov

2024 yil « _____ » _____



M.O'.

Qoraqalpoq davlat universiteti

Rektori  A.M. Reymov

2024 yil « _____ » _____



M.O'.